

BUXORO AMIRLIGIDA TA’LIM TIZIMIGA OID ISLOHOTLAR

Tojiyev Jasur Alisher O‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
jasurtojiyev703@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada XVIII asr o‘rtalari XX asr birinchi choragida Buxoro amirligida ta’lim sohasida islohotlar olib borgan hukmdorlar, madrasalarda olib borilgan ta’lim-tarbiya faoliyati sohasidagi turli bosqichlarda amalga oshirilgan ishlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, Amir Shohmurod, madrasa, Amir Haydar islohotlari, tarbiya, uzlusiz ta’lim, an’anaviy ta’lim, maktab islohotlari.

РЕФОРМЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Таджиев Джасур Алишер оглы
Термезский государственный педагогический институт
jasurtojiyev703@gmail.com

Аннотация: В данной статье правителями, проводившими реформы в области образования в Бухарском эмирата в середине 18 века и первой четверти 20 века, проведена работа на разных этапах в области образования и обучения. в медресе подвергаются научному анализу.

Ключевые слова: образовательный процесс, Амир Шахмурад, медресе, реформы Амира Гейдара, образование, непрерывное образование, традиционное образование, школьные реформы.

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixi har tomonlama xolis va ilmiy yoritila boshlandi. Ayniqsa, o‘zbek davlatchiligi tarixi va uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonlarida tutgan o‘rnini yoritishga kata e’tibor berilmoqda. Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Bugungi kungacha tadqiqotchilar tomonidan Buxoro amirligining ta’lim tizimi tarixini o’rganishga ko’plab marotaba murojaat qilingan va madrasalar tarixining turli muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo’lsada, bugungi kungacha mang’itlar davri ta’lim tizimining tarixi to‘liq tadqiq qilib bo’lingan deb bo’lmaydi. O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan Buxoro amirligida ham ilm-fanni rivojlantirish, ta’lim tizimini isloh qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarning ko‘pchiligi hukmron mang‘itlar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda o‘rtalas tarixnavisligidagi an‘analar davom ettirilgani kuzatiladi. Amirlikda yashab o‘tgan ilm-fan namoyondalarining faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratganlar. Xususan, Mullo Ibodullaning “Tarixi Amir Haydar”, Muhammad Sharifning “Dostoni amironi mang‘it”, Mir Olim Buxoriyning “Fathnomai sultoniy”, Mirzo Abdulazim Somiyuning “Tarixi salotini mang‘itiya”, “Dahmai shohon”, Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqining “Toju tavorih”, Ahmad Donishning “Mang‘itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola”, Mirzo Sodiq Munshiyning “Mang‘it hukmdorlari tarixi” kabilar shular jumlasidandir. Buxoro madrasalari tarixiga oid maxsus tizimga solingan ma’lumotlar XX asr boshlarida paydo bo‘la boshladи. Buxoro amirligi madrasalari haqidagi muhim va qimmatli ma’lumotlarni Abdurauf Fitrat, Muhammad Sharif Sadri Ziyo, Said Mansur Olimiy, Sadriddin Ayniy kabi mualliflarning asarlaridan olishimiz mumkin.

MUHOKAMA

Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat O‘rtal Osiyoda, balkim boshqa qo‘shni davlatlarda ham mashhur edi. Buxoro amirligida faoliyat yuritgan madrasalar soni manbalarda turlicha keltirilgan. Xususan, o‘sha davrda yashab ijod qilgan Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniylarning manbalarida yozishicha jami 200 ta madrasa bo‘lgan. Turkiston general gubernatorligi hisoboti bilan bog‘liq arxiv hujjatlarida esa 1914-yilda Buxoro amirligida 350 ta madrasa faoliyat yuritgani qayd etilgan [1]. Boshlang‘ich ta’lim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud bo‘lib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qur’onning dastlabki oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan. Madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. Madrasalarda o‘qitish uch bosqichda: past qadam, miyona (o‘rtal) qadam va peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan

Ahmad Donishnnng yozishicha, Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilm-fan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan. Amir Haydar madrasalarda tahsil olib borish uchun Istanbul, Kobul va boshqa shaharlardan ko‘plab qo‘lyozma kitoblarni olib kelishni buyurgan. Uning o‘zi muntazam ravishda saboq bergen, madrasalarda dars o‘tgan. Amir Haydar «al-Favoid al-alfiya» nomli fiqhning xanafiya mazhabiga oid asar ham yozgan. “Tuhfat az-zoirin” asarida Amir Haydar “Amir Said” va “Firdavsmakoni” “laqablari bilan tanilgani qayd etilgan

Ingliz sayyohi A.Byorns esa Buxoro madrasalarida Erondan tashqari barcha mamlakatlardan kelgan talabalarni uchratish mumkinligi, ular yetti yoki sakkiz yillik o‘quv kursini tugatib, o‘z vatanlariga yaxshi bilim egallab qaytishlarini qayd etgan. Aleksandr Byorns Amir Haydarning amir sifatida, inson sifatida shaxsiy fazilatlari,

davlatni boshqarishdagi tadbirorona harakatlari, ilm-fanni qo‘llab-quvvatlab, madrasalar ta’limini nazorat ostiga olgani eslatib o‘tib, Amir Haydarni mukkammal o‘rgangan. Uning aytishicha, Buxoroda katta va kichik 366 ta kollej (madrasa) o‘qishlar mavjud bo‘lib, ularning hammasi din teologiyani o‘rganishga qaratilgan deb keltiradi.

Xorijdan kelgan ayrim talabalar o‘qishni tamomlagach, yurtiga qaytmasdan shu yerda mudarris bo‘lib qolishi ham kuzatilgan. Jumladan, Mudhammad Sharif ibn Madammad Nadiy Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida yashab, Buxoro madrasalaridan biriga tarix va adabiyot tarixidan dars bergen. O‘zi shoirlilik ham qilgan[2].

Buxoro XVIII asrning birinchi yarmi XIX asrda xam oldingi asrlardagi o‘z nufuzini saqlab qolgan. Ayniqsa, Buxoro amiri Shohmurod (1785-1800 yy.) va amir Xaydar (1800-1826 yy.) hukmronligi davrida ilmga e’tibor kuchayib, diniy bilimlar gullab yashnagan Sadri Ziyoning ma’lumotiga ko‘ra, Shohmurod Miri Arab madrasasining bitta xujrasida kechayu-kunduz riyozat chekib ilm olish bilan shug‘ullangan va xalq orasida «Amir Jannatmakon» laqabi bilan tanilgan. [3].

Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaxa (stipendiya) to‘lashni joriy etgan[4]. U oliy madrasalarning faoliyatini oshirish maqsadida bir qancha islohotlarni ham yo‘lga qo‘ygan. Bu islohotlar asosan uch yo‘l bilan amalgalashirilgan:

1. Ahvoli yomonlashgan madrasa binolarini ta’mirlash
2. Vaqf mulkclarini qayta tiklash orqali madrasalarni moliyalashtirish
3. Mas’ul shaxslarni mudarris etib tayinlash

Mang’it hukmdorlaridan amir Haydar (1800-1826) o‘z hukmronligi davrida ilm-fan, din va ta’lim sohalariga alohida e’tibor qaratdi. Uning bu sohada amalgalashirilgan ishlari haqidagi ma’lumotlar saroy tarixchilarasi va ingliz sayyoohlarining kundaliklarida uchraydi. Jumladan, saroy tarixchisi Mirza Abdulazim Somiy o‘z asarida Amir Haydar haqida “saxovatpesha, olim va odil podsho edi. Barcha ilmlardan yetarlicha xabardor bo‘lib, ilm ila shug‘ullangan paytlarida qori, davlat ila bandligiga qaramay, ilmi ilohiyotni o‘rganmoqda bo‘lgan tolib-ul ilmlarga saboq berar va shogirdlarining davrasi ming kishidan kam bo‘lmashdi”, deb yozadi.

Qo‘qon xonligi tarixchilaridan biri Muhammad hakimxon To‘ra o‘z asarida mang’it hukmdorlari tarixi va faoliyati haqida ma’lumot berib o‘tib, Amir Haydar haqida shunday yozadi: “O‘zbek podshohlari ichida Amir Haydar kabi hafsalali olim va birovning haqqidan hazar qiluvchi o‘tmagan. Chunonchi aytishlaricha, har kuni to‘rt yuz nafar tolubi ilm uning qoshida dars olarkan. Umri muddati qirqdan o‘tganda Qur’oni karimni to‘la yod olib, hofizi kalomulloh bo‘lgan. Bir necha piri komildan irshodlik xati olib, suluk qoidalarini mukkammal bosib o‘tgandi.

Amir Haydar hukmronligining dastlabki yillarida maktab ta’limini isloh qilishga kirishdi. 1803-1804-yillarda o’tkazgan islohotlariga ko‘ra, amirlikdagi barcha fuqarolar uchun zaruriy umumiy ta’lim joriy etilgan. Amirlikning tog’li hududlarda yashovchi aholisi uchun davlat xazinasidan mакtablar qurdirib, u yerda dars berish uchun Buxoro shahridan muallimlar jo‘natilgan. Muallimlar bilan birga ta’lim tizimini tashkillashtirish, darsliklar, o‘quv qurollari bilan bog’liq muammolarni bartaraf etish uchun saroyning nufuzli amaldorlar ham yuborilgan. Shuningdek, umumiy ta’lim bo‘yicha maktab va madrasalarda amalga oshirilayotgan ishlar, muallimlar va amaldorlarning faoliyatini nazorat qilish uchun Buxoro amirligining har bir bekliklariga alohida maxsus vakillar jo‘natilgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozma xazinasida “Sayyid amir Haydar Baxodurxon maktuboti nomli” qo‘lyozma saqlanib, ushbu hujjatda Buxoro amirining aholi o‘rtasida umumiy zaruriy ta’limni joriy etish haqidagi qonunni amalga oshirish borasidagi tadbir va ko‘rsatmalariga bag’ishlangan qismi mavjud. U Qarshi viloyatining hokimi Amir Haydarning jiyani Sayid Ahmad xoja Fayziy nomiga bitilganligini ko‘rsak bo‘ladi.

Ushbu hujjatdan ko‘rinib turibdiki, hali XIX asr boshlaridayoq Buxoro amirligida aholi o‘rtasida umumiy majburiy ta’limni to‘la yo‘lga qo‘yish uchun davlat g‘amxo‘rlikni o‘z zimmasiga olgan. Shu bilan birga, umumiy ta’lim ishlari joylarda qanday yo‘lga qo‘yilgani hukumat tomindan nazorat ostiga olingan. Farmondan, ma’lum bo‘lishicha, Buxoro amiri joylardagi ta’lim masalalarining ahvolini bilish va shu asosda keying chora-tadbirlar belgilash maqsadida joylarga nazoratchilarni yuborishni o‘z suyukli va ishongan jiyaniga topshirishning o‘zi maorif masalalariga g‘amxo‘rlik niyohatda ma’suliyatli eknaligidan dalolat beradi.

Amir Haydar jiyani - Qarshi begi Sayid Ahmad xoja Fayziyni butun amirlikda umumiy ta’limni nazorat qilish bo‘yicha ma’sul e’tib tayinlagan. Shuningdek, amir har bir tuman hokimi, qozisi va muhtasibiga maxsus yorliqlar jo‘natib, ularning zimmasiga musulmonlarning farzi ayni bo‘lgan namozni o‘rgatish, jamoat namoziga targ‘ib qilish, mакtablar ochish va ularni ishlatish vazifasini yuklaydi.

Amir Haydar oliy madrasalarga mudarrislarni shaxsan o‘zi tayinlagan. Ularga shariatga xilof ravishda ish tutmaslikni buyurgan va mudarrisligini tasdiqlovchi “Mandati mudarris” hujjatini taqdim qilgan. Madrasalarda tahsil olib borish uchun Istanbul, Kobul va boshqa shaharlardan ko‘plab qo‘lyozma kitoblar sotib olib, madrasalarga hadya qilgan. Jumladan, u talabalar uchun Istanbul (Usmonli turk sultonligi)dan kitoblar keltirishga shaxsan o‘zi bosh-qosh bo‘lgan. Ya’ni 1815 yilda devonbegi Eshmuhammad va Mirzo Muhammad Yusuf qo‘rchiposhini maktub bilan Istanbulga yuborib, sulton Mahmud II dan shariatga doir kitoblarni so‘raganda, Mahmud II o‘z elchisi orqali Buxoroga 32 jilddan iborat kitob yuborgan. Amir davlat ishlaridan ortib, oliy madrasalarda ilohiyot fanidan ma’ruzalar ham o‘qigan.

Buxoro amiri Said Olimxon (1910-1920) hokimiyat tepasiga kelgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham qator islohotlarni amalga oshirdi. Maktab va madrasalar faoliyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, bu ishga bosh vazir (qushbegi) va bosh qozi (qozikalon)ni mas’ul qilib qo‘ydi. Amir 1911 yil mart oyida “Ta’lim to‘g‘risida” farmon chiqardi.

Unga ko‘ra, madrasa talabalariga turli hoshiyalar o‘qitilmasligi, tafsir va hadis rasmiy dars sifatida o‘qitilishi; davlat xazinasiga olingan vaqflardan yig‘ilgan pullarga shaharning turli yerlarida maktablar qurish hamda ularga muallimlar tayinlash; muallim olim, xushxat va xushqiroat bo‘lishi; ularga maktablarning vaqflaridan tashqari davlat xazinasidan yillik 120 so‘m maosh tayinlash; tahsil uchun bolalardan pul olmaslik; maktablarga bir nozir tayinlash va u har oy maktabni taftish qilib amirga hisobot berishi belgilab qo‘yildi[5].

Farmon ijrosini ta’minalash maqsadida o‘sha yilning aprel oyida shahardagi barcha maktablar muallimlari Registonga chaqirilib, Nasrullo qushbegi tomonidan ularning har biriga o‘n besh so‘mdan maosh berilgan. Oylik tarqatilgach, qushbegi muallimlarga bolalar ta’lim-tarbiyasiga jiddiy qarab, sifatli darslar tashkil etishlari bo‘yicha ko‘rsatmalar bergen 1913-yil sentyabr oyining boshida Buxoro shahrida yangi tipdagi 3 bo‘limli: yozish va hisob xonasi, qiroatxonadan iborat maktab binosining qurilishi boshlanib, unga birinchi g‘ishtini qozikalon qo‘ygan [6].

1912 yilning 9 oktyabrida Chorjo‘yda Otaxo‘ja (Otaulla Xujayev)ning yangi usul musulmon maktabi ochiladi. 1912 yilning boshlarida yosh buxoroliklarning faol a’zolaridan bulgan Usmon Xo‘ja jadid maktablaridan birini qayta tashkil etadi. Usmon Xo‘ja tashkil etgan jadid maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonlari butunlay yangi tartiblar asosida yo‘lga qo‘yilgan edi. Bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo‘lish, bir kunda 4-5 soatdan ortik dars o‘tmaslik, har bir darsdan so‘ng 10 daqiqalik tanaffus joriy qilish, asosiy e’tiborni dunyoviy fanlarni o‘qitishga qaratish, asosan, birinchi bosqichda o‘quvchilarning savodini chiqarish, juma va yakshanba kunlari dam olishni joriy qilish, 10 oylik tahsildan so‘ng bolalarga ta’til berish, o‘quvchilardan vaqt-vaqt bilan imtihon olib turish, bolalarni yorug‘ va mumkin qadar shinam xonalarda o‘qitib, o‘qitish jarayonida ko‘rgazmali qurollar: globus va xaritalardan foydalanish qoidalariga e’tibor qaratilgan. 1912-yilning oxirlarida Usmon Xo‘janing qarindoshi Latif Xo‘ja tomonidan Govkushon mahallasida yangi maktab ochiladi. Shahar savdogarlari xomiyligida ishlagan ushbu maktab ikki sinfdan iborat bo‘lib, har bir sinfda uchta globus, kitoblar, o‘tirish va yozish uchun partalar, o‘quvchilarga beriladigan daftarlar, o‘quv qurollari, devoriy taxta (doska) bo‘lgan. Bitta sinfda boshlangich ta’lim oluvchilar, ikkinchisida esa olti oy ta’lim olganlar o‘qigan. [7].

Xulosa qilib aytganda, Amir Haydar va Shohmurod davrida mamlakatda ta’lim tizimi sohasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Butun amirlikdagi maktablar faoliyati nazoratga olindi, tog’li hududlarda maktablar qurilib, u yerkarning aholisini

savodli qilish birlamchi vazifa etib belgilandi. Madrasa ta’limida mudarrislar faoliyatiga alohida e’tibor qaratilib, diniy bilimi mukammal bo‘lgan shaxslargina bu lavozimga tayinlandi. Mang’it amirlari orasida Amir Haydarning ta’lim sohasida amalga oshirgan islohotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Olimxon davrida ham maktab va madrasalardagi ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun ko’plab islohotlar olib borilgan, bu islohotlar mamlakat taraqqiyoti uchun nechog‘li ahamiyatli ekanligini anglab, bu borada ancha o‘zgarishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lganligini ko’rishimiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Asrorova L. Buxoro madrasaları tarixidan. – T.: “Hilol nashr” 2017
2. Хади Заде Р. Источники к изучению таджикской литературы второй половины XIX в. - Сталинабад, 1956. - С. 124-127
3. Джурбаев Д.Х. (истома мусульманского образования в Бухарском ханстве в конце XVIII-начале XIX ни. (но материалам русских источников). // История. Таърих. - С. 210. (Бундан кейин: Джурбаев Д.Х. Система мусульманского образования в Бухарском ханстве в конце XVIII-начале XIX вв.).
4. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. - С. 331.
5. Buxoro (“Vaqt” gazetasidan olingan) // “Tarjimon”. (Bog‘chasaroy), № 12, 1911 yil 18 mart.
6. Imom Sobirjon Mustofiy. Buxoroda madrasa ta’sis etiluv munosabatila // “Vakt”. (Orenburg), 1915 yil 24 dekabr, № 1948.
7. Бобоҷонова ф.Ҳ. Бухоро амирлигида таълим тизими. - XIX аср охири XX аср бошлари. Бухоро - 2014.